

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIVY TUZUMI PRINSIPLARI

*Ilmiy rahbar: SHDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti o‘qtuvchisi*

*Azamova Sitara Ayonova.*

*Mualliflar: SHDPI MG‘MA 1-24 guruh talabalari,*

*Ostonova Nilufar, Xolmatova Dilnoza, Meliyeva Fayoza*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada davlat , huquq, prinsiplari shu qatorda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy tuzum va prinsiplari haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Davlat, huquq, konstitutsiya, prinsiplari, konstitutsiyaviy huquq ,konstitutsiyaviy prinsiplari, konstitutsiyaviy tuzum.*

Konstitutsiya viy huquq huquqning alohida tarmog‘i bo‘lib , mamlakatlarning huquq tizimining tarkibiga kiradi ,shu bilan birga u huquq tizimiga yetakchi huquq hisoblanadi.Konstitutsiyaviy huquq ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.Bu ijtimoiy munosabatlar jamiyat,inson,davlat o'rtasida vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi — mamlakatning konstitutsiyaviy tuzum asoslarini , jamiyat va davlat shaxs munosabatlarini (jamiyatning ijtimoiy negizi ,jamoat birlashmalari ,oila,ommaviy axborot vositalari) asoslarini, mamlakatning davlat va mamuriy - hududida tuzilishi asoslarini , davlat hokimiyatining tashkil etish asoslarini belgilovchi ,o‘rnatuvchi huquqiy normalar yig‘indisidir.

Bu huquqiy normalar xalqaro shartnmalar ,Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar ,joriy,oddiy qonunlar va boshqa qonun ostia hujjatlarda o‘z o‘rnini topganligini ko'rishimiz mumkin.Konstitutsiyaviy huquq o‘z normalari orqali inson.uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasidan ko‘taradi, shaxs va davlat munosabatlarni tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq mustaqil huquq sohasi bo‘lib ,u milliy huquqiy tizimining o‘zagi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquqning predmeti—konstitutsiyaviy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir.Konstitutsiyaviy ,huquqiy normalar Konstitutsiya asosida davlat organlari va fuqarolar ,davlat hokimiyatining amalga oshirishning va tashkil etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar asosida tashkil topgan jamiyat tuzilishi ,davlat tuzilishi ijtimoiy —ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni tartibga soladi va mustahkamlaydi .

Konstitutsiyaviy huquq munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarga (boshqa huquqiy munosabatlardan)quyidagilardan ko‘rinadi.Ular o‘zining alohida mazmuniga ega.Bu munosabatlar faqat konstitutsiyaviy huquq predmeti hisoblanadi. Bu munosabatlarni alohida subyektlar tarkibiga ega. Barcha konstitutsiyaviy huquq normalari ham aniq konstitutsiyaviy huquq munosabatlarini vujudga keltirmaydi. Masalan,prinsip normalari. Ular o‘zining tartibga solishdi ta'sirini belgilaydi.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari orasida Konstitutsiya alohida o'rin egallaydi. Chunki konstitutsiya faqat konstitutsiyaviy huquq manbasi emas ,balki boshqa huquqlar uchun ham manbadir.Konstitutsiyaning huquq manbalari orasida alohida mavqeyini uning davlatning asosiy qonuni ekanligini ham belgilaydi. Konstitutsiya eng muhim norma va prinsiplar o‘rnatuvchi va keyinchalik bulardan boshqa huquqiy tartibga solishdi shakllari o‘sib chiqadi.

Konstitutsiyaviy huquqning manbalari quyidagilardan kiradi.

- 1.KONSTITUTSIYA
- 2.Qonunlar
- 3.Hukumat qarorlar
- 4.Mahalliy davlat organlarining qarorlar
- 5.Konstitutsiyaviy Sud qarorlar
- 6.Prezident farmonlari
- 7.Oliy Majlis palatalarining qarorlar
- 8.Konstitutsiyaviy qonunlar.

Xulosa o'rnida shuni takidlashimiz joizki, Konstitutsiya barcha qonunlarning asosi bo'lib, konstitutsiyaviy huquq munosabatlarida ham albatta ko'rishimiz mumkinki, konstitutsiya asosiy manbalari vazifasini bajarayapti. O'zbekiston Respublikasidagi barcha qonunlar, qarorlar insonlar manfaatini himoya qilish ekanligini to'g'risida bo'lib, ularning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgandir O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi bu albatta Konstitutsiya bo'lib bunda, ayniqsa yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda inson huquqlari va erkinliklari yanada mustahkamlab qo'yildi. Bunda biz eng avvalo, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning muqaddimasiga, shu o'rinda bo'lim, boblar bilan tanishib chiqishimiz lozim. Biz yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 14-bobiga e'tibor beradigan bo'lsak, aynan bu bob oila, yoshlar va bolalar deb nomlanganligini ko'rishimiz mumkin ayni bu bobda biz oilaning bolaning, ota onaning qadri qimmat, ularning burchlari huquq va erkinliklarini belgilabganligini ko'rishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda o'zgarishlarning barchasi bu albatta inson manfaatlarini yanada himoya qilishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin, bunda biz boshqa davlatning konstitutsiyalarida oila uchun alohida bob ajratilmaganida ham mumkin. Yani bizning davlatlar inson qadri qay darajada mustahkamligini, va bundan ham ma'lum bo'ladiki, insonla manfaatining bizning davlatimizda, balki, qonunlarimizda, shu bilan bir qatorda Konstitutsiyaning har bir moddasida, bandida o'z aksini topganligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga ko'ra: Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. 61-moddasida bo'lsa davlat hokimiyatining 3 ga bo'linganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyati. 58-moddaga binoan xotin qizlar va erkaklarning huquqlari qonun oldiga tengligi belgilab qo'yilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi ayni palladium 3-Renisans davrini o'z boshidan kechirayotgan ekan, ayni bu davr, O'zbekiston Respublikasining har SOHASIDA o'zgarishlar bo'lishini talab qildi. o'z navbatida bu jarayon huquq sohasi bo'yicha yangiliklarni talab qildi desak mubolag'a

bo'lasdi. Chunki, ayni yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning yangilanishining asosiy sabablardan biri bu albatta yangilanayotgan O'zbekiston kelajagini uchun bo'ldi. Yangi konstitutsiyamizga e'tibor bilan nazar tashlaydigan bo'lsak aynan bu konstitutsiyamizni, eski konstitutsiya bilan tasdiqlaydigan bo'lsak, yangi konstitutsiyani juda mulk tarzda to'ldirilganligini ko'ramiz.

Bunda biz tashkil siyosati deb nomlangan bobi yana bir moddada ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning konstitutsiyamizning har bir bobi bo'limi, moddasi va bandining ko'p qismi inson manfaatlarini himoya qilishini kuzatishimiz mumkin.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn] Rasmiy nashr  
- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-120 b
2. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ DARSLIK - Toshkent: TDYU, 2020 - 188b.
3. WWW.//ziyonetuz.
4. Kun.uz.
5. https://www.tsul.uz